

YAYLOV YERLARIDAN FOYDALANISH VA ULARNING HOLATI

Bobonazarov Toshmuhammad Yuldashevich
“O‘zdavyerloyiha” DILI “Qashvilyerloyiha” bo‘linmasi
I-toifali muhandis mutahassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yaylov yerlaridan foydalanish va ularning holati bo‘yicha ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Yaylov yerlari o‘simliklar monitoringi, pichanzor, o‘simliklar va tabiiy yaylovlar .

USAGE OF PASTURE LANDS AND THEIR CONDITION

Abstract: This article provides information on the use of pasture lands and their condition.

Keywords: Monitoring of grassland plants, hayfields, plants and natural pastures.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasining “Yaylovlar to‘g‘risida”gi va “Davlat yer kadastr to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentyabrdagi PF-6061-son Farmoni, 2021-yil 24-fevraldagi PQ-5006- son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 737-son hamda 2022-yil 14-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 22-son qarorlarining ijrosi yuzasidan hukumatimiz tomonidan bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yaylov deb, o‘simlik qoplami uy hayvonlarini boqish uchun mo‘ljallangan maydonga aytiladi. Har bir yaylov tipi ma‘lum botanik turlar va tarkibdan iborat o‘simliklar guruhidan tashkil topgan bo‘lib mahsuldor holatda saqlanadi va foydalanishi lozim. Odatda, yaylovlar tabiiy va sun‘iy turlarga ajratiladi.

Pichanzor deganda esa o‘simlik qoplami ozuqa (pichan) tayyorlash uchun mo‘ljallangan yer maydonlari tushuniladi. Ulardan, o‘rni kelganda, yaylov sifatida ham foydalanish mumkin. Pichanzorlar ham yaylovlarga o‘xshab 2 tur - tabiiy va sun‘iy turlarga bo‘linadi. Respublikamizda tub ma'noda doimiy tabiiy pichanzorlar maydonlari o‘ta kam va ular asosan yaylov, toq mintaqalariga xos.

Biroq ob-havo qulay kelgan yillari adir va cho‘l mintaqalarining talaygina maydonlari karrak yantoq, qamish, kavrak, selin, maysa o‘t o‘lanlar hisobidan xo‘jaliklar o‘z ehtiyojlari uchun dag‘al pichan tayyorlash amaliyoti keng quloq yoyganligini ta’kidlab o‘tmoq joiz. Yaylovlar haqida gap borar ekan, yana bir zarur va muhim tushuncha - yaylov tipini ham

bilmoq zarur. Yaylov tipi deb ozuqabop turlar va miqdor jihatdan ma'lum tarkibga ega yaylovlarga aytiladi; har bir yaylov tipi o'ziga xos xususiyat va xossaga ega. Yaylov tiplarining asosiy belgilari sifatida o'simliklar tarkibi, o'simlik qoplaminin tuzilishi, ular tarqalgan tuproq yuzasi tuzilishi masalalari qabul qilingan. Ta'kidlash joizki, hanuzgacha qorako'lchilik yaylov tiplari borasida umum tan olingan va qabul qilingan tushuncha mavjud emas.

O'simlik qoplami uy hayvonlarini boqish uchun mo'ljallangan maydonga aytiladi. Har bir yaylov tipi ma'lum botanik turlar va tarkibdan iborat o'simliklar guruhidan tashkil topgan bo'lib mahsulдор holatda saqlanadi va foydalanishi lozim. Odatda, yaylovlar tabiiy va sun'iy turlarga ajratiladi.

“O'zdavverloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti mutaxassislari, olimlari tomonidan yuqorida qayd qilingan qarorlar asosida 2022-yilda “Tabiiy yaylovlar o'simliklarining monitoringini o'tkazish ishlarini amalga oshirish bo'yicha” ilmiyuslubiy qo'llanma ishlab chiqilib, shu asosda tabiiy o'simliklar monitoringiga bag'ishlangan tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining «O'zdavverloyiha» davlat ilmiy-loyihalash instituti Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarida bo'linmalari tashkil etilgan bo'lib, ular o'zlarining hududiy chegaralaridagi qishloq xo'jaligi yerlaridagi o'zgarishlar bo'yicha muntazam ravishda turli xil monitoring-kuzatuvlar o'tkazib boradilar.



O'zbekiston Respublikasi Yer fondi tavsifi.

Monitoring natijalariga ko‘ra, Respublika miqyosida sug‘oriladigan yerlarning miqdoriy o‘zgarishlari 2006 yilda – 3 mln 304 ming ga, 2007 yilda – 3 mln 309 ming ga, 2008 yilda – 3 mln 311 ming ga, 2009 yilda – 3 mln 314 ming ga, 2010 yilda – 3 mln 316 ming ga, 2011 yilda – 3 mln 313 ming ga, 2012 yilda – 3 mln 307 ming ga, 2013 yilda – 3 mln 305 ming ga, 2014 yilda – 3 mln 299 ming ga, 2015 yilda – 3 mln 288 ming ga, 2016 yilda – 3 mln 285 ming ga, 2017 yilda – 3 mln 279 ming ga, 2018 yilda – 3 mln 272 ming ga, 2019 yilda – 3 mln 262 ming ga, 2020 yilda – 3 mln 260 ming gektarni tashkil etib, keskin o‘zgarishlar qayd qilingan, xususan, 2020 yilda 2010 yilga nisbatan 56 ming gektarga, 2019 yilga nisbatan esa -2,3 ming gektarga kamaygan.

NATIJALAR

Respublikamizda 21,1 mln gektar yaylovlar (46,5%) mavjud, so‘nggi 35-40 yil davomida yaylov o‘simliklari soni va hajmi kamayib, degradatsiyaga uchragan maydonlar ko‘paygan. Respublikamizda tog‘, tog‘oldi va cho‘l yaylovlari tuproqlarning hozirgi holatini aniqlash, degradatsiya jarayonlarini oldini olish, mahsuldorligini oshirish, yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda.

MUHOKAMA

Tabiiy yaylovlar o‘simliklarining monitoringi – tabiiy yaylovlar to‘g‘risidagi miqdoriy va sifatga doir ma‘lumotlar haqida axborot to‘plash, ularning holatini baholash va prognoz qilish, salbiy jarayonlarni aniqlash hamda bartaraf etish maqsadida tabiiy yaylovlar o‘simliklarining holati, tabiiy yaylovlardan foydalanish natijasida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar yuzasidan kuzatuvlar tizimi hisoblanadi.

“Tabiiy yaylovlar o‘simliklarining monitoringi” da: “Yovvoyi holda o‘suvichi yaylov o‘simliklari tabiiy yaylovlar monitoringi kuzatishlarining obyektlari hisoblanadi va ular ustidan kuzatishlar monitoring punktlarida, shuningdek, o‘simlik dunyosi obyektlari davlat kadastrini yuritish doirasida o‘tkaziladi” deb belgilab qo‘yilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda tabiiy yaylovlarning monitoringini makon va zamonda muntazam yuritish, buni geoaxborot texnologiyalari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Sababi, tezkor va ishonchli ma‘lumotlar olish imkonini beradi. Yaylovlarni yanada yaxshilash uchun birinchi navbatda almashlab boqish sxemasi asosida chorva mollari o‘tlatishni tashkil etish zarur.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yaylovlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 20-may.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-avgustdagi “Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 235-son qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma‘muriy hududlar birliklar chegarasini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish” to‘g‘risidagi 299-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativhuquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 22-son qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Milliy hisoboti. - Toshkent: 2021. 87-b.

7. Turayev R.A. Yer monitoringi / O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2022. - 162 b.

8. Turaev R.A., Davronov O.O‘., Sharopov R.N. Lalmi va yaylov yerlarida monitoringni yuritish. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. -Toshkent: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2021. - 62 b.

9. O.O‘. Davronov. Tabiiy yaylovlar o‘simliklarining monitoringini yuritish va uning ahamiyati. O‘zbekiston zamini. 3/2023. 20-23 bet.